



## XALQ DEPUTATLARI OLTINKO'L TUMAN KENGASHINING QARORI

2023 - yil 29 - dekabr

VI-45-86-1-15-K/23

Oltinko'l tumani hokimligi

### 2024 yil uchun Andijon viloyati Oltinko'l tumanining mahalliy byudjetini tasdiqlash to'g'risida

O'zbekiston Respublikasining "2024 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi 2023 yil 25 dekabrda O'RQ-886-son Qonuni, xalq deputatlari Andijonviloyati Kengashining 2023 yil 26 dekabrda "2024 yil uchun Andijon viloyatining mahalliybyudjetini tasdiqlash to'g'risida"gi VI-57-255-1-0-K/23-sonli qaroriga hamda Andijon viloyatiIqtisodiyot va moliya bosh boshqarmasining 2023 yil 27 dekabrda 02/01-04-38-/1635-sonli xatini inobatga olib, Byudjet kodeksining 27-, 99-moddalari "Mahalliy davlat hokimiyatito'g'risida"gi Qonunining 6-, 24-moddalariga asosan xalq deputatlari Oltinko'l tuman Kengashi

#### Q A R O R Q I L A D I:

1. O'zbekiston Respublikasining "2024 yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to'g'risida"gi O'RQ-886-sonli Qonuni (keyingi o'rinlarda Qonun deb ataladi) ijro varahbarlik uchun qabul qilinsin.

2. Qonunga muvofiq Andijon viloyati Oltinko'l tuman mahalliy byudjetining 2024 yil uchun daromadlari 89 mlrd. 899 mln.so'm, xarajatlari 198 mlrd. 789 mln.so'm prognozqilinganligi hamda viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar108 mlrd. 889 mln.so'm miqdorida tasdiqlanganligi ma'lumot uchun qabul qilinsin.

3. 2024 yil uchun Oltinko'l tumanini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi hamda 2025-2027 yillarga maqsadli mo'ljallari 1-ilovaga muvofiq, 2024yil uchun Oltinko'l tuman mahalliy byudjeti daromadlari prognozi 2-ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2024 yil uchun Oltinko'l tuman mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag'larini taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag'larning cheklangan miqdorlari 3-ilovaga muvofiqtasdiqlansin.

4. 2024 yil uchun tuman mahalliy byudjetlariga umumdavlat soliqlaridan ajratmalar normativlari 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, ajratmalar normativlari bo'yicha viloyat mahalliy byudjeti bilan tuman mahalliybyudjetlarining taqsimotini o'rnatilgan tartibda Andijon viloyati bo'yicha G'aznachilik xizmatiboshqarmasi tomonidan amalga oshirilishi belgilab qo'yilsin.

5. 2024 yil uchun tuman mahalliy byudjetlarining daromadlari va xarajatlari prognozlari 5- ilovaga muvofiq ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2024 yil uchun viloyat mahalliy byudjetidan tuman mahalliy byudjetlariga ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlari 6- ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Ushbu Qarorda nazarda tutilgan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar miqdorlarini tuman mahalliy byudjetlari daromadlari prognozi ijrosidan qat'iy nazar, kamaytirishga yo'l qo'yilmaydi.

6. 2024 yil uchun Oltinko'1 tuman mahalliy byudjeti zaxira jamg'armasi hajmi 1 mlrd. 767 mln. so'm miqdorida belgilansin.

Tumanlar va shaharlar byudjetlarining 2024 yil uchun zaxira jamg'armalari tegishli byudjetlar tasdiqlangan umumiy xarajatlarining (bundan tumanlar va shaharlar byudjetlari jamoatchilik fikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish mablag'lari mustasno) kamida 1,0 foizi miqdorida shakllantirilsin.

Viloyatning viloyat byudjeti, tumanlar va shaharlar byudjetlarini ijro etish jarayonida yuqori turuvchi byudjetdan ajratiladigan byudjetlararo transfertlar miqdorlari oshgan taqdirda tegishli byudjetlar zaxira jamg'armalarining belgilangan miqdorlari qayta ko'rib chiqilmaydi.

Viloyat byudjetining zaxira jamg'armasidan tumanlar va shaharlar byudjetlariga mablag'lar ajratilgan taqdirda ushbu Qarorga o'zgartirishlar kiritilmaydi.

7. 2024 yilda soliqlarning quyidagi turlari:

a) tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlariga to'liq hajmda o'tkaziladi:

jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig'i;

jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig'i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to'lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlartomonidan to'lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq, bundan elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan soliq mustasno;

noruda qurilish materiallari bo'yicha yer qa'ridan foydalanganlik uchun soliq;

davlat aktivlarini foydalanishga (ijaraga) berishdan tushumlar;

aylanmadan olinadigan soliq;

tamaki, alkohol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig'i bo'yicha tushumlar, 2023 yilining Iiyul holatiga ko'ra tumanlar va shaharlar aholisi sonining viloyat aholisi sonidagi ulushigamuvofiq.

b) viloyatning viloyat byudjetiga to'liq hajmda o'tkaziladi:

foyda solig'idan tushgan tushumlar (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori bilan tasdiqlanadigan ro'yxatga muvofiq yirik soliq to'lovchilar, O'zbekiston Respublikasidadoimiy muassasa orqali faoliyatni amalga oshiruvchi O'zbekiston Respublikasi norezidentlaritomonidan, shuningdek norezidentlarning to'lov manbaida ushlab qolinadigan daromadlaridanto'lanadigan foyda solig'idan tashqari);

elektr stansiyalari tomonidan to'lanadigan suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

benzinni, dizel yoqilg'isini va gazni yakuniy iste'molchilarga realizatsiya qilishdagi aksiz solig'i;

davlat daromadiga o'tkazilgan mol-mulkni realizatsiya qilishdan.

v) quyidagi qonunchilikda belgilangan miqdorlarda Davlat byudjetiga taqsimlanadigan daromadlar viloyat byudjeti hamda tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlari o'rtasidataqsimlanadi:

davlat bojlari;

jarimalar;

yig'imlar;

g) tuman mahalliy byudjetlariga quyidagi ulushlarda:

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliqning 50 foizi;

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig'ining 50 foizi;

davlat aktivlarini joylashtirishdan va sotishdan qonunchilikda belgilangan normativlar bo'yicha olingan daromadlarning 50 foizi;

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'idan tushgan tushumlarning (jismoniy shaxslar mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to'g'risidagi deklaratsiyagaasosan to'laydigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar to'laydigan jismoniy shaxslardanolinadigan daromad solig'idan tashqari) Andijon va Xonobod shaharlarida 20 foizi, qolganhududlarda 25 foizi o'tkaziladi.

Agar qonunchilikda daromadlarning byudjet darajalari bo'yicha taqsimlanishi nazarda tutilmagan bo'lsa, mahalliy byudjetlarga o'tkazilishi lozim bo'lgan daromadlarning turlariviloyatning viloyat byudjetiga o'tkaziladi.

8. Tuman hokimining birinchi o'rinbosari A.Mamajonov, tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Xalilov), tuman soliq inspeksiyasi (Sh.Nabijonov) tuman hokimligi, mas'ul muassasa

va tashkilotlar bilan birgalikda:

tegishli byudjetlarni birinchi navbatda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon va kommunal xizmatlar xarajatlari rejalashtirilishini nazarda tutgan holdashakllantirish;

mahalliy byudjetlar prognoz ko'rsatkichlarini o'z vaqtida va sifatli bajarish;

byudjet mablag'laridan maqsadli va samarali foydalanish;

byudjet intizomiga rioya etilishi ustidan nazorat va mas'uliyatni yanada kuchaytirish;

tegishli mahalliy byudjetlarga soliqlar va boshqa majburiy to'lovlarning to'liq tushumini ta'minlash;

byudjet daromadlari bazasini oshirish va qo'shimcha zaxiralarni aniqlash zarurligiga alohida e'tibor qaratsin.

9. Tuman soliq inspeksiyasi (Sh.Nabijonov) O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida belgilangan vakolatlaridan kelib chiqib:

soliqlarning to'liq va to'g'ri hisoblanishini hamda ushbu soliqlarni o'z vaqtida byudjetga undirilishi ustidan soliq nazoratini kuchaytirish;

yer solig'i, suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va mol-mulk soliqlari bo'yicha doimiy tahlillar o'tkazgan holda, soliqlarni to'liq hisoblanishini ta'minlash hamda ushbu soliqto'lovlari bo'yicha soliq qarzdorligiga yo'l qo'ymaslik choralari ko'rish;

aylanmadan soliq turi bo'yicha soliq to'lovchilar tomonidan naqd pul aylanmalarining soliq hisobotlarida to'liq aks ettirilishi ustidan doimiy soliq nazoratini o'rnatish hamda zarurhollarda belgilangan tartibda xronometraj va kameral soliq nazorati tadbirlarini o'tkazish;

Bunda, mazkur yo'nalishda jamoatchilik nazoratini kuchaytirish maqsadida fuqarolarga xarid chekini talab qilib olishni targ'ib etuvchi ijtimoiy roliklar hamda video materiallartayyorlab, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida keng targ'ibot-tashviqot ishlariniolib borishga alohida e'tibor qaratish;

Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi Oltinko'l tuman filiali boshlig'i (X.Azimov) bilan birgalikda xatlov ishlarini samarali tashkil etish orqali yer va mol-mulk solig'ining soliq bazasini oshirish hamda viloyatda mavjud soliq to'lovchilarning yer uchastkalari va mol-mulkrimaydonlarini chuqur tahlil etgan holda ushbu mol-mulklarga nisbatan soliqlarni to'liq va to'g'rihisoblanishini ta'minlasin.

Majburiy ijro byurosi Andijon viloyat boshqarmasi Oltinko'l tuman bo'limi bilan hamkorlikda soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha mavjud qarzdorliklarni byudjetga undirish yuzasidan tegishli choralar ko'rib borsin hamda choraklar yakuni bilan soliqqarzdorliklarining chorak boshiga nisbatan kamayib borishi bo'yicha barcha zaruriy chora-tadbirlarni ko'rish vazifasi yuklatilsin.

10. Tuman soliq inspeksiyasi (Sh.Nabijonov), Kadastr agentligi viloyat boshqarmasi

Oltinko‘l tuman filiali boshlig‘i (X.Azimov), Oltinko‘l tumani ekologiya va atrof-muhitnimuhofaza qilish bo‘limi (S.Toshmirzaev), tuman hokimligi bilan birgalikda:

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlarni aniqlash bo‘yicha xatlovlar o‘tkazish;

xatlov natijalari bo‘yicha aniqlangan noqonuniy faoliyat olib borayotgan karerlar faoliyatini qonuniylashtirish hamda ularni soliq bazasiga qamrab olish;

noruda qurilish materiallarini qazib olish sohasida faoliyat olib borayotgan karerlar tomonidan qazib olinayotgan noruda qurilish materiallari hajmining soliq hisobotlarida to‘liq aksettirilishi ustidan doimiy nazorat o‘rnatilsin.

Bunda, ushbu sohada faoliyat olib borayotgan karerlarning qazib olish hajmlarini doimiy tahlil qilib borish hamda zarur hollarda qazib olish hajmlarini aniqlashda mahalliy byudjetlarning qo‘shimcha manbalari hisobidan “marksheydrlik” xizmatlaridan foydalanishga alohida e‘tibor qaratilsin.

11. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Andijon viloyat hududiy boshqarmasi Oltinko‘l tuman vakili bilan Bo‘sh turgan ob‘ektlardan samarali foydalanishni tashkil etish markazining Andijon viloyat hududiy boshqarmasi Oltinko‘l tuman bo‘yicha mas‘ul xodim bilan birgalikda:

bo‘sh turgan davlat mulki ob‘ektlarini aniqlash bo‘yicha xatlov ishlarini samarali tashkil etish;

xatlov natijalariga ko‘ra viloyatda mavjud bo‘sh turgan davlat mulki ob‘ektlari ro‘yxatini doimiy shakllantirib borish;

shakllantirilgan ro‘yxatga asosan bo‘sh turgan davlat mulki ob‘ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha tegishli takliflar tayyorlash;

bo‘sh turgan davlat mulki ob‘ektlarini ijaraga berish yoki sotish bo‘yicha ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalarida roliklar va video-materiallar tayyorlash;

ususiy lashtirilishi mo‘ljallangan bo‘sh turgan davlat mulki ob‘ektlarini «E- IJRO Aukcion» elektron savdo maydonchasi orqali sotish ishlarini tashkillashtirish vazifasi yuklatilsin.

12. Tuman soliq inspeksiyasi (Sh.Nabijonov), tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Xalilov) davlat korxonalarini hamda ustav kapitalida 50 foiz va undan ortiq miqdorda davlat ulushi mavjud bo‘lgan yuridik shaxslar (shu jumladan, ularning tarkibiga kiruvchi korxonalar tomonidan) 2024 yilning 1 iyuliga qadar 2023 yil yakunlari bo‘yicha o‘z sof foydasining 50 foiz miqdorida ajratmalar va davlat ulushi bo‘yicha dividendlar hisoblanishi hamda 2024 yilning 1 sentyabridan kechiktirmay tegishli darajadagi byudjetlarga o‘tkazilishini ta‘minlasin.

13. Monopoliyaga qarshi kurashish qo‘mitasi Andijon viloyati hududiy boshqarmasi Oltinko‘l tuman bo‘yicha vakili tuman hokimligi bilan birgalikda tashqi reklama ob‘ektlarini to‘liq xatlovdan o‘tkazgan holda, ushbu tashqi reklama ob‘ektlari bo‘yicha shartnomalar tuzish choralarini ko‘rsin hamda ushbu shartnomalar bo‘yicha yig‘imlarni tegishli byudjetlarga



to'lanishi ustidan doimiy nazorat o'rnatilsin.

14. Norin-Qoradaryo irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi A.Raxmonov va tuman soliq inspeksiyasi (Sh.Nabijonov)ga tuman hokimligi bilan birgalikda tumanda sug'orishgasarflanayotgan suv hajmlari bo'yicha aniq hisob-kitoblar yuritgan holda mazkur iste'molhajmlari bo'yicha suv resurslaridan foydalanish uchun soliqlarni to'liq hisoblanishini hamdamoliya yili yakuniga qadar tegishli mahalliy byudjetlarga to'liq undirib olish vazifasi yuklatilsin.

15. Tuman ichki ishlar bo'limi (M.Xaydarov), tuman yo'l harakati xavfsizligi bo'limi (Sh.Mamadaliev), tuman adliya boshqarmasi (U.Yakubov) hisoblangan boj, jarima vayig'implarni o'z vaqtida o'rnatilgan tartibda tegishli byudjetlarga undirish choralarini ko'riborsin.

16. Kengashning mahalliy byudjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi:

mahalliy byudjetning qo'shimcha manbalaridan foydalanish to'g'risidagi hokimlik tomonidan taqdim etilgan takliflari asosida byudjet qonunchiligiga to'liq rioya etilgan holda Kengash qaror loyihasini ishlab chiqish;

Kengash qarori asosida mahalliy byudjetning qo'shimcha manbalari hisobidan ajratilgan mablag'larni samarali va maqsadli foydalanilishi ustidan nazorat o'rnatish va natijalari bo'yichatavsiyalar berish maqsadida monitoring qilish;

mahalliy byudjet xarajatlarining qonunchilikda belgilangan qismining jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo'naltirilishida ishtirok etish va ushumablag'larning maqsadli sarflanishi ustidan nazoratni amalga oshirib borsin.

17. Tuman hokimligi:

jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga tumanlar va shaharlar mahalliy byudjetlari jami xarajatlarining (bundan tumanlar va shaharlar byudjetlarizaxira jamg'armasi mablag'lari mustasno) 5 foizi miqdorida, biroq kamida 6 milliard so'mrejalashtirilishi hamda shakllangan qo'shimcha mablag'larining kamida 30 foizini jamoatchilikfikri asosida shakllantiriladigan tadbirlarni moliyalashtirish uchun "Fuqarolar tashabbusijamg'armasi"ga yo'naltirsin.

Bunda, tuman xalq deputatlari, Yoshlar ishlar agentligi, tuman hokimliklari huzuridagi Jamoatchilik kengashlari hamda hokim yordamchilari byudjet jarayonida fuqarolarning faolishtirokini ta'minlash maqsadida aholiga keng targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishga mas'uletib belgilansin;

mahalliy byudjetlarning qo'shimcha manbalari hisobidan xarid qilingan tovarlar va xizmatlar, qurilish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlari olib borilayotgan ob'ektlarro'yxati, shuningdek qurilish-ta'mirlash ishlarining moliyalashtirilishi to'g'risidagi ma'lumotlarhar chorak yakunlariga ko'ra, keyingi chorak birinchi oyining 10 sanasiga qadar majburiy tartibda tegishli hokimliklarning rasmiy veb-saytlariga joylashtiribborilsin.

18. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Mamajonov, xalq deputatlari tuman Kengashi kotibiyati, tuman hokimliklari, mutasaddi idora va tashkilotlar:

mahalliy byudjetlar daromadlari va xarajatlarining prognoz ko‘rsatkichlari bajarilishi hamda soliq bazasini kengaytirish yuzasidan ko‘rilgan chora-tadbirlar;

ajratilgan byudjet mablag‘laridan maqsadli va samarali foydalanishi yuzasidan erishilgan natijalar bo‘yicha Kengashga bir chorakda kamida bir marotaba hisobot kiritib borsin.

20. Tuman hokimining matbuot kotibi (S.Abdullaev) mazkur qarorni rasmiy e‘lon qilinishini hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta‘minlasin.

21. Ushbu qaror 2024 yil 1 yanvardan e‘tiboran kuchga kiradi.

22. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari viloyat Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish vatadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (X.Asranov) zimmasigayuklatilsin.

**Kengash raisi**



**M.Obidov**



Xalq deputatlari Oltinko‘l tuman  
Kengashining  
2023-yil 29-dekabrda  
VI-45-86-1-15-K/23-son qaroriga  
1-ilova

**2025 yil uchun Oltinko‘l tumanini rivojlantirishning asosiy makroiqtisodiy  
ko‘rsatkichlariproгноzi hamda 2026-2027 yillarga maqsadli mo‘ljallari**

№	Ko‘rsatkichlar	2025 yil uchunproгноz	Maqsadli mo‘ljallar	
			2026 yil	2027 yil
1.	Yalpi hududiy mahsulot, mlrd.so‘m	91 389	104 267	111 428
2.	Yalpi hududiy mahsulotning o‘shish sur‘ati, foizda	6,1	6,2	6,3
3.	Ist‘emol narxlari indeksi, o‘tgan yilning dekabroyiga nisbatan, foizda	7,5-8,5	5-7	5-7
4.	Sanoat mahsulotlarining o‘shish sur‘ati, foizda	7,7	8,0	8,2
5.	Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaliklarida ishlabchiqarishning o‘shish sur‘ati, foizda	4,3	4,4	4,5
6.	Xizmatlarning o‘shish sur‘ati, foizda	12,2	13,4	13,6

Xalq deputatlari Oltinko‘l tuman  
Kengashining  
2023-yil 29-dekabrda  
VI-45-86-1-15-K/23-son qaroriga  
2-ilova

2024 yil uchun **Oltinko‘l tumani** mahalliy byudjeti daromadlar prognozi

ming so‘mda

<b>T/r</b>	<b>Ko‘rsatkichlar</b>	<b>Summa</b>
1	Aylanmadan soliq	7,696,000
2	Jismoniy shahslardan olinadigan daromad solig‘i	15,975,500
3	Yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan qat’iy belgilangan daromad solig‘i	701,000
4	Jismoniy shahslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	10,516,000
5	Jismoniy shahslardan olinadigan yer solig‘i	12,879,000
6	Yuridik shahslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	2,888,000
7	Yuridik shahslardan olinadigan yer solig‘i	3,161,000
8	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa‘ridan foydalanganlik uchun soliq	133,000
9	Suv resrslaridan foydalanganlik uchun soliq	3,219,000
10	Ijara to‘lovlari	3,000
11	Davlat mulkini xususiylashtirishdan tushumlar	63,000
<b>JAMI</b>		
	Viloyat byudjetidan ajratiladigan tartibga soluvchi byudjetlararo transfertlar	141,554,450
<b>Hamma daromadlar</b>		<b>57,234,500</b>

Xalq deputatlari Oltinko‘l tuman  
Kengashining  
2023-yil 29-dekabrda  
VI-45-86-1-15-K/23-son qaroriga  
3-ilova

**2024 yil uchun Oltinko‘l tumani mahalliy byudjetidan hududiy byudjet mablag‘larini  
taqsimlovchilarga ajratiladigan mablag‘larning cheklangan miqdorlari**

ming so‘mda

<b>T/r</b>	<b>Ko‘rsatkichlar</b>	<b>Miqdori</b>
<b>a</b>	<b>Harajatlar miqdori, Jami</b>	<b>198 788 950</b>
	<i>shu jumladan</i>	
	joriy harajatlar	198 788 950
<b>1</b>	<b>Maktabgacha va maktab ta‘lim bo‘limi</b>	<b>27 196 339</b>
	<i>shu jumladan</i>	
	joriy harajatlar	27 196 339
<b>2</b>	<b>Sog‘liqni saqlash bo‘limi</b>	<b>92 919 861</b>
	<i>shu jumladan</i>	
	joriy harajatlar	92 919 861
<b>3</b>	<b>Madaniyat bo‘limi</b>	<b>5 006 851</b>
	<i>shu jumladan</i>	
	joriy harajatlar	5 006 851
<b>4</b>	<b>Yoshlar siyosati va sport bo‘limi</b>	<b>4 555 998</b>
	<i>shu jumladan</i>	
	joriy harajatlar	4 555 998
<b>5</b>	<b>Qishloq xo‘jaligi bo‘limi</b>	<b>317 261</b>
	<i>shu jumladan</i>	
	joriy harajatlar	317 261
<b>6</b>	<b>Obodonlashtirish boshqarmasi</b>	<b>16 998 313</b>
	<i>shu jumladan</i>	
	joriy harajatlar	16 998 313
<b>7</b>	<b>Irrigatsiya tizimlari bo‘limi</b>	<b>1 839 970</b>
	<i>shu jumladan</i>	
	joriy harajatlar	1 839 970
<b>8</b>	<b>Iqtisodiyot va moliya bosh bo‘limi</b>	<b>1 740 974</b>
	<i>shu jumladan</i>	
	joriy harajatlar	1 740 974
<b>9</b>	<b>Veterinariya va chorvachilikni rivojlantirish bo‘limi</b>	<b>1 129 852</b>
	<i>shu jumladan</i>	
	joriy harajatlar	1 129 852
<b>10</b>	<b>Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik bosh bo‘limi</b>	<b>1 737 756</b>
	<i>shu jumladan</i>	
	joriy harajatlar	1 737 756
<b>11</b>	<b>Soliq inspeksiyasi</b>	<b>4 317 700</b>
	<i>shu jumladan</i>	
	joriy harajatlar	4 317 700
<b>12</b>	<b>Hokimiyat</b>	<b>31 905 250</b>
	<i>shu jumladan</i>	
	joriy harajatlar	31 905 250

	<i>Ozodlikdan maxrum etish jazosini o'tab bo'lgan fuqarolarning ijtimoiy moslashuviga ko'maklashish xarajatlari</i>	21 000
	<i>Fukarolar tashabbusi jamg'armasi</i>	20 256 812
	<i>Zaxira jamg'armasi</i>	1 767 645
<b>13</b>	<b>Halq qabulxonasi</b>	<b>199 520</b>
	<i>shu jumladan</i>	
	<i>joriy harajatlar</i>	199 520
<b>14</b>	<b>Yoshlar ishlar agentligi xududiy bo'limi</b>	<b>5 226 282</b>
	<i>shu jumladan</i>	
	<i>joriy harajatlar</i>	5 226 282
<b>15</b>	<b>Oila va xotin-qizlar bo'limi</b>	<b>3 697 023</b>
	<i>shu jumladan</i>	
	<i>joriy harajatlar</i>	3 697 023

Xalq deputatlari Oltinko‘l tuman Kengashining  
2023-yil 29-dekabrda  
VI-45-86-1-15-K/23-son qaroriga  
4-ilova  
**бюджетларига**

**2024 йил учун умумдавлат солиқлари ва мажбурий тўловлардан шаҳарлар ва туманлар маҳаллий ажратмалармеъёри**

*Фоиз ҳисобида*

№	Туман номи	Фойда солиғи	Айланмадан олинадиган солиқ	Жисмоний шахслардан олинадиган даромад солиғи	Жисмоний шахслардан олинадиган мол-мулк солиғи	Жисмоний шахслардан олинадиган ер солиғи	Сув ресурсларидан фойдаланганлик учун солиқ, бундан электр станциялари томонидан тўланадиган солиқ мустасно	Норуда қурилиш материаллари бўйича ер қазридан фойдаланганлик учун солиқ	Бензинни, дизель қилғисива газни яқуний истеъмолчиларга реализация қилинган акциз солиғи	Юридик шахсларнинг мол-мулкига солиқ	Юридик шахслардан олинадиган ер солиғи	Йиғимлар (3422203 кодлари бўйича)*	Давлат боғлари (3422103 даромад кодлари бўйича)*	Жаримлар (3430103 даромад кодлари бўйича)*	Маҳаллий давлат ҳокимияти органларининг улуши бўйича дивидендлар (даромадлар) ва ажратмалар	Давлат мулкни кузусийлаштиришдан олинган даромадлар	Ер участкаларига бўлган ҳуқуқларни сотишдан тушган пул маблағлари	Давлат мулкни ижарага беришдан тушумлар	Бошқа (3450603, 3450723, 3450725, 3450950, 3450951, 3511117, 3511700, 3710303 даромад кодлари бўйича) тушумлар*
1	Олтинқўл	0	100	25	100	100	100	100	0	50	50	100	100	100	0	100	50	100	100

\*Мазкур иловада кўрсатилганидан ташқари қолган барча тушумлар вилоят бюджетига ўтказилади

Xalq deputatlari Oltinko‘l tuman  
Kengashining  
2023-yil 29-dekabrda  
VI-45-86-1-15-K/23-son qaroriga  
5-ilova

## 2024 yil uchun Oltinko‘l tuman mahalliy byudjetining daromadlari va xarajatlariprognozlari

ming so‘mda		
Hududlar nomi	Daromadlar*	Xarajatlar
<b>JAMI</b>	<b>57,234,500.0</b>	<b>198,788,950.0</b>
Oltinko‘l tumani	57,234,500.0	198,788,950.0

\* tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha transfertlarni inobatga olmagan holda

Xalq deputatlari Oltinko‘l tuman  
Kengashining  
2023-yil 29-dekabrda  
VI-45-86-1-15-K/23-son qaroriga  
6-ilova

**2024 yil uchun Oltinko‘l tuman mahalliy byudjetiga ajratiladigan  
tartibga soluvchibyudjetlararo transfertlar miqdorlari**

			<b>ming so‘mda</b>
<b>№</b>	<b>Hududlar nomi</b>	<b>Summa</b>	<i>shundan, aksiz solig‘i tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar*</i>
	<b>JAMI</b>	<b>141,554,450.0</b>	<b>32,664,881.0</b>
1	Oltinko‘l tumani	141,554,450.0	32,664,881.0

*\* tamaki, alkogol mahsulotlari, shu jumladan pivo (import orqali kirgan mahsulotlardan tashqari) hamda mobil aloqa xizmatlari uchun aksiz solig‘i bo‘yicha tushumlari hisobidan ajratiladigan mablag‘lar*

# DEPUTATLARI OLTINKO‘L TUMANI KENGASHINING

## Q A R O R I

2024-yil 7-mart

VI-48-27-1-15-K/24

Oltinko‘l tumani

### Oltinko‘l tuman mahalliy byudjetining 2024-yil boshiga shakllangan erkin qoldiqmablag‘larini qayta yo‘naltirish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksining 27-, 126-moddalari hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan xalqdeputatlari tuman Kengashi

### Q A R O R Q I L A D I:

1. Oltinko‘l tuman byudjetini 2024-yil yil boshiga shakllangan erkin qoldiqmablag‘larini qayta yo‘lantirish xamda maqsadli va manzilli sarflanishi bo‘yicha tumanxokimining kiritgan taklifi maqullansin.

2. Oltinko‘l tuman mahalliy byudjetining 2024-yil boshiga shakllangan erkinqoldiq mablag‘lari mazkur qarorning 1-ilovasiga asosan yo‘naltirilsin.

3. **Oltinko‘l tuman** hokimining o‘rinbosari A.Mamatqodirov tuman iqtisodiyotva moliya bo‘limi (A.Xalilov) bilan birgalikda:

mazkur qarorning ilovasiga muvofiq ko‘zda tutilgan tadbirlarni o‘z vaqtidamolialashtirilishini ta‘minlash;

ajratilgan mablag‘lar doirasida O‘zbekiston Respublikasining “2024-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat byudjeti to‘g‘risida”gi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Byudjet kodeksi talablariga muvofiq viloyat mahalliy byudjetining parametrlariga belgilangan tartibda tegishli o‘zgartirishlarni kiritish;

ajratilayotgan mablag‘larning maqsadli va samarali ishlatilishi nazorati borasida tegishli chora-tadbirlarni belgilash, moliyaviy hisobotlar asosida ishlatilmagan va iqtisodqilingan mablag‘larni tuman mahalliy byudjetiga tiklash choralari ko‘rsin.

4. Tuman g‘aznachilik xizmati (A.Umarov) ajratilgan mablag‘lar bo‘yicha shartnomalarni belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazish hamda xarajatlarni moliyalashtirish ishlarini amalga oshirsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish vatadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi X.Asranov hamda tuman hokimining o‘rinbosari A.Mamatqodirov zimmalariga yuklatilsin.

Sessiya raisi

SATIMOVA  
GULNOZAG‘ULOMJONOVNA



Xalq deputatlari Oltinko‘l tumani Kengashining  
2024-yil 7-martdagi  
VI-48-27-1-15-K/24 -son qaroriga 1-ilova

**Oltinko‘l tuman mahalliy byudjetining 2024-yil boshiga shakllangan erkin  
qoldiq mablag‘larini qayta yo‘naltirish to‘g‘risida**

<b>No</b>	<b>Tadbir nomi</b>	<b>Ajratiladigan mablag‘lar</b>
<b>1</b>	“Ayollar daftari” jamg‘armasiga	20,000
<b>2</b>	“Yoshlar daftari” jamg‘armasiga	20,000
<b>3</b>	“Temir daftar” jamg‘armasiga	20,000
<b>4</b>	"Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi"ga	94.090
<b>5</b>	Boshqa xarajatlar (Tumanda amalga oshirilayotgan obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish) tuman xokimi farmoyishi asosida	159 543
	<b>Jami</b>	<b>313 633</b>

ming so‘mda

# XALQ DEPUTATLARI OLTINKO‘L TUMANI KENGASHINING

## QARORI

2024-yil 27-avgust

VI-53-68-1-15-K/24

Oltinko‘l tumani

### **Oltinko‘l tuman mahalliy byudjetining 2024 yil 2-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 27-, 126-moddalariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

#### **QAROR QILADI:**

1.Oltinko‘l tuman mahalliy byudjetinin 2024 yil 2-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan qo‘shimcha mablag‘lar 852 000 ming so‘mni tashkil etganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

Tuman hokimligining “2024 yil 2-chorak yakuni bilan shakllangan qo‘shimcha mablag‘larni maqsadli va manzilli sarflanishi bo‘yicha” taklifi maqullansin.

2.O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksining 126-moddasiga asosan tuman mahalliy byudjetining 2024 yil 2-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan ilovaga muvofiq mablag‘lar ajratilsin.

3.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (S.Ergashev) tuman iqtisodiyot vamolliya bo‘limi (B.Yulchiev) va g‘aznachilik xizmati (Umarov) bilan birgalikda ushbu qaror ilovasiga muvofiq ajratilgan mablag‘larni belgilangan tartibda yo‘naltirilishini hamda moliyalashtirilishini ta‘minlasin.

4.Tuman hokimligi matbuot xizmati (J.Raximov) mazkur qarorni matbuotda e‘lonqilsin.

5.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish vatadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi hamda hokimining birinchi o‘rinbosari S.Ergashev zimmlariga yuklatilsin.

Sessiya raisi

SATIMOVA  
GULNOZAG‘ULOMJONOVNA

Xalq deputatlari Oltinko‘l tumani Kengashining

2024-yil 27-avgustdagi

VI-53-68-1-15-K/24 -son qarorigal-ilova

**Oltinko‘l tuman mahalliy byudjetining 2024 yil  
2-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan  
shakllangan mablag‘larni yo‘naltirish hisobi  
ming so‘mda**

<b>№</b>	<b>Mablag‘ ajratilayotgantash kilot nomi</b>	<b>Mablag‘ ajratish maqsadi</b>	<b>Ajratilayotgan mablag‘ miqdori</b>	<b>Mablag‘ ajratish uchun asos</b>
1	Tuman hokimligi	“Yoshlar daftari” jamg‘armasiga	30 000	PQ-92, 19.01.2022 y.
2	Tuman hokimligi	"Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi"ga	130 000	PQ-5072, 13.04.2021 y.
3	Tuman xokimligi	Yangi majlislar zalini jixozlash bilan bogliq xaraiatlariga	150 000	
4	Tuman xokimligi	Tuman xokimligibinosini ta‘mirlashishlariga	50 000	
5	Tuman xokimligi	Qo‘riqlash xizmatixarajatlariga	25 000	
6	Obodonllashtirishbo‘ limi	Ko‘makay qabristoniga	50 000	
<b>JAMI</b>	<b>Xxx</b>	<b>Xxx</b>	<b>435 000</b>	<b>Xxx</b>

# XALQ DEPUTATLARI OLTINKO‘L TUMANI KENGASHINING

## Q A R O R I

2024-yil 26-oktabr

VI-56-81-1-15-K/24

Oltinko‘l tumani

### **Oltinko‘l tuman mahalliy byudjetining 2024 yil 3-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan mablag‘larni yo‘naltirish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 27-, 126-moddalariga muvofiq, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24-moddalariga asosan Xalq deputatlari tuman Kengashi

#### **QAROR QILADI:**

1.Oltinko‘l tuman mahalliy byudjetinin 2024 yil 3-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan qo‘shimcha mablag‘lar 185.0 mln so‘mni tashkil etganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.(shundan 10.7mln.so‘m yer sotish va musodara tushumi)

Tuman hokimligining “2024 yil 3-chorak yakuni bilan shakllangan qo‘shimcha mablag‘larni maqsadli va manzilli sarflanishi bo‘yicha” taklifi maqullansin.

2.O‘zbekiston Respublikasining Byudjet kodeksining 126-moddasiga asosan tuman mahalliy byudjetining 2024 yil 3-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan ilovaga muvofiq mablag‘lar ajratilsin.

3.Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (S.Ergashev) tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limi (B.Yulchiev) va g‘aznachilik xizmati (Umarov) bilan birgalikda ushbu qaror ilovasiga muvofiq ajratilgan mablag‘larni belgilangan tartibda yo‘naltirilishini hamda moliyalashtirilishini ta‘minlasin.

4.Tuman hokimligi matbuot xizmati (J.Raximov) mazkur qarorni matbuotda e‘lonqilsin.

5.Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va vatandorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi raisi hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari S.Ergashev zimmlariga yuklatilsin.

Sessiya raisi

SATIMOVA  
GULNOZAG‘ULOMJONOVNA

Xalq deputatlari Oltinko‘l tumani  
Kengashining  
2024-yil 26-oktabrdagi  
VI-56-81-1-15-K/24 -son qaroriga1-ilova

**Oltinko‘l tuman mahalliy byudjetining 2024 yil  
2-chorak daromadlar rejasini orttirib bajarilgan qismi hisobidan shakllangan  
mablag‘larni yo‘naltirish  
hisobi  
ming so‘mda**

<b>№</b>	<b>Mablag‘ ajratilayotgan tashkilot nomi</b>	<b>Mablag‘ ajratish maqsadi</b>	<b>Ajratilayotgan mablag‘ miqdori</b>	<b>Mablag‘ ajratish uchun asos</b>
1	Tuman hokimligi	“jismoniy va yuridikshaxslarga yetkazilgan zararni qoplash” jamg‘armasiga	10 700	Oliy majlis senati QQ - 331-IV, 08.04.2022 y.
2	Tuman hokimligi	"Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi"ga	52 300	PQ-5072, 13.04.2021 y.
3	Tuman xokimligi	“Yoshlar daftari” jamg‘armasiga	21 500	PQ-92, 19.01.2022 y.
4	Maxallalar uyushmasi	Intizom maxalla fuqarolar yig‘iniga bino qurish xarajatlariga	100 000	
JAMI	<b>Xxx</b>	<b>Xxx</b>	<b>184 500</b>	<b>Xxx</b>